

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

VOLUME I, ISSUE 10



JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**



IMFAKTOR

OCTOBER | 2023

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 10-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-10

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-10

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 10 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-10>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек Ғ.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергандовна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайбергандов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 2022 йил 22 декабрь кунини **№ 054834**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6** та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 8.2** “**импакт-фактор**” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади**.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

RAXMATOV Faxriddin Umarovich

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

erkin tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10041751>

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILAYOTGAN HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada Vatanimizda tub islohotlarni amalga oshirilayotganligi, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, barcha sohalarda iqtidorli yoshlarimiz o'z bilim va mahoratlarini ko'rsatib, ijtimoiy maqomga ega bo'lib borayotganligi hamda shu davrda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: insoniyatning tinchligi, xavfsizligi, diniy ekstremizm, terrorism, zo'rovonliklar, huquqbuzarliklar, yoshlar jinoyatlari, jismoniy tarbiya, islohotlar, iqtidorli yoshlar, giyohvandlik, ichkilikbozlik, turli g'oyalar.

ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СОВЕРШЕННЫХ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье в нашей стране проводятся коренные реформы, наша самоотверженная и патриотичная молодежь активно участвует в создании новой основы развития нашей страны, наша талантливая молодежь проявляет свои знания и умения во всех областях и приобретает социальные статусы, и в этот период освещаются вопросы профилактики преступности несовершеннолетних.

Ключевые слова: человеческий мир, безопасность, религиозный экстремизм, терроризм, насилие, преступления, молодежные преступления, физическое воспитание, реформы, талантливая молодежь, наркомания, алкоголизм, различные идеи.

PREVENTION OF CRIMES COMMITTED BY MINORS

ANNOTATION

In this article, fundamental reforms are being carried out in our country, our selfless and patriotic youth are actively participating in creating a new foundation for our country's development, our talented youth are showing their knowledge and skills in all fields and are gaining social status, and in this period, minors' issues of crime prevention are covered.

Key words: human peace, security, religious extremism, terrorism, violence, crimes, youth crimes, physical education, reforms, talented youth, drug addiction, alcoholism, various ideas.

Jenevada Millatlar Ligasining Beshinchi Assambleyasida qabul qilingan “Bolalar huquqi to‘g‘risidagi Deklarasiya”da bolalarga jismoniy va ma‘naviy rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilishi”, “gunoh qilgan bola to‘g‘ri yo‘lga solinishi”, “og‘ir damlarda bola mehr ko‘rib voyaga yetishi va himoya qilinishi” ta‘kidlanadi. BMTning Ta‘lim, Fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti – YuNESKO ma‘lumotlariga qaraganda, bugunki kunda jahonda o‘n millionlab bolalar ta‘lim olishdan mahrumligicha qolmoqda, 85 millionga yaqin bola mutlaqo o‘qish va yozishni bilmas ekan. Savodsizlik, o‘z navbatida, o‘smirlarning kelajagiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning bilib-bilmay jinoyat ko‘chasiga kirib qolishiga sabab bo‘lmoqda [6].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 avgustdagi 490-sonli “Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq 2021 yil 1 sentyabrdan e‘tiboran qarovsiz bolalar bilan ishlash tizimida shunday tartib joriy etildiki, unga muvofiq, voyaga yetmagan shaxsning qarovsiz qolganligini aniqlash bo‘yicha voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixologlar tomonidan - ta‘lim muassasalarida, profilaktika inspektorlari tomonidan - xizmat hududida, mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari va mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan - oilalarda o‘rganish (kuzatish) va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish jarayonida qarovsiz bolalar aniqlanadigan bo‘ldi.

Ma‘lumki, aynan o‘smirlar ham ijobiy, ham salbiy ta‘sirlarga tez, oson beriluvchan bo‘ladi. Ular, ayniqsa, o‘tish yoshida o‘zini ko‘rsatgisi, qobiliyatini namoyon etgisi keladi. Agar maktabda, oilada bunga imkon topolmasa, qulay sharoitni ko‘cha-ko‘ydan izlashadi. Qarabsizki, jinoiy guruhlariga qo‘shilib qolishi ham hych gap emas.

Jinoiy guruhdagi tengdoshlari yangi a‘zoni o‘zlaricha qo‘llab-quvvatlashadi. To‘daboshi esa «Sen zo‘rsan, ko‘p ishga qodirsan», deb dalda berib turadi. Hali hayotda oq-qorani tanib ulgurmagan bolaga sodir etgan jinoyatini qahramonlik deya maqtashadi. Shu tariqa uning dunyoqarashi jamiyatdagi odob-axloq me‘yorlariga, amaldagi qonun-qoidalarga zid ravishda shakllana boradi. Guruh tarkibidagi o‘smirlar taxminan 30 foiz jinoyatlarni kattalar ishtirokida sodir etar ekan.

O‘smirlarning jinoiy guruhlari odatda biror-bir yetakchi atrofida shakllanadi. Ko‘pincha to‘daga a‘zolarining yoshi kattarog‘i yetakchilik qiladi. Aksar hollarda bunday jinoiy guruhlar bir hududda yashovchi o‘smirlardan tarkib topadi. Guruh a‘zolarining ko‘pchiligi qonun-qoidalarni pisand qilmaydi, shafqatsizlikka moyil bo‘ladi, ayrimlari kashandalikka, ichkilikka, hatto giyohvandlikka ruju qo‘yadi [5].

Voyaga yetmaganlarning jinoyat ko‘chasiga kirishiga sabab bo‘ladigan omillar esa hammaga ma‘lum. Ammo ularni yana bir bor eslatib o‘tish foydadan xoli bo‘lmaydi, deb o‘ylaymiz. Bularga quyidagilar kiradi:

- oiladagi nosog‘lom muhit;
- moddiy va ma‘naviy yetishmovchiliklar;
- bolalarning qarovsiz va nazoratsiz qoldirilishi;

- ommaviy axborot vositalarida, telegramda, filmlarda zo‘ravonlik va shafqatsizliklarning targ‘ib qilinishi;
- ta‘lim muassasalarida samarali profilaktik ishlar olib borilmasligi;
- voyaga yetmaganlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etilmaganligi;
- ijtimoiy og‘ir ahvolda qolgan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga huquqni muhofaza qilish idoralari yetarlicha e‘tibor bermasligi;
- yoshlarga o‘rnak bo‘layotgan kattalar orasida giyohvandlik va ichkilikbozlikning avj olishi.

Tadqiqotchilarning fikricha, voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish uchun huquqni muhofaza qilish organlarining bu boradagi faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadga muvofiq. Soha xodimlari bunday jinoyatchilikning sabab va omillarini aniqlash uchun oilalar, ta‘lim muassasalari bilan yaqin hamkorlikda, kompleks tarzda ish olib borishlari lozim.

Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsi shakllanish yo‘lining birinchi bosqichi tarbiyasining og‘irligidadir. Tarbiyasi og‘irlikning ijtimoiy ildizlarini bolaning oilasidan va uni o‘rab turgan muhitdan izlash lozim. Bunday o‘smir o‘z qilmishlarni ko‘pincha tashqi ta‘sir ostida amalga oshiradi. Uning hatti-harakatlari o‘zgarishi muhitning o‘zgarishiga bog‘liq. Bunday vaziyatda huquqbuzarliklarning oldini olishning umumiy subyektlari bo‘lgan ta‘lim muassasalari, mahalla va keng jamoatchilik o‘smirga o‘z vaqtida ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmagan shaxslar nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari vaqtlarda ham ota-onalarining, ta‘lim muassasasining nazorati va tarbiyaviy ta‘siri ostida bo‘lishi kerak. Tahlil etilgan ijobiy natijalar shundan dalolat beradiki, qayerda pedagogik jamoalar bunday javobgarlikni o‘z zimmlariga olib, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etgan bo‘lsa, ota-onalar farzandlari taqdiriga e‘tiborsiz bo‘lmasa, o‘sha yerda qonunbuzarliklar juda kam sodir etiladi.

Oila hamda o‘quv-tarbiya muassasasi nazoratidan chetda qolish yoshlarda beboshlik hissini yuzaga keltiradi. Ular nima qilsam ham javobgar bo‘lmas ekanman, degan xulosaga keladi. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishning zamonaviy sharoitida asosiy diqqat-e‘tibor ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini oluvchi dastlabki profilaktika masalalariga qaratilgan bo‘lishi kerak [4].

O‘smirlar bilan amalga oshiriladigan profilaktik choralar umumtarbiyaviy, jinoiy va qonuniy choralar ta‘sirini birlashtiruvchi omil hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishning bosh mezoni shaxsning yoshligidan to‘g‘ri tarbiyalashni ta‘minlashdan va undagi ayrim salbiy ko‘rinishlarni o‘z vaqtida to‘g‘rilab, sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini olishdan iboratdir.

Hozirgi paytda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish dolzarb muammolardan biridir. Chunki kelajakning davomchilari aynan o‘shir kelayotgan yosh avlodidir. Aynan ular davlatning kelajagini belgilaydi. Yosh avlod vakillari o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish uchun, avvalo, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va bartaraf etish maqsadga muvofiqdir. Buni amalga oshirish uchun ichki ishlar organlari joylarda umumiy profilaktikadan unumli foydalanishi va yoshlar tarbiyasiga bevosita mas‘ul shaxslar hamda tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikni yaxshi yo‘lga qo‘yishi ijobiy natijalar beradi.

Mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oilalarda sog‘lom ma‘naviy muhitni, xususan, o‘zaro hurmat-ehtirom, er-xotin o‘rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin o‘rtasida, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida mehr-oqibat ruhini yaratish, qiz bolalarni — bo‘lajak onalarni — jismonan sog‘lom va intellektual rivojlangan tarzda shakllantirish, ularning akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarida albatta ta‘lim olishini, zamonaviy bilimlar va kasb-hunarlariga ega bo‘lishlarini ta‘minlash, ularning hayotda munosib o‘rinni egallashlarida, kelajakda sog‘lom va mustahkam oila qurishlarida asosiy shart hisoblanmish mustahkam hayotiy pozitsiyani va mustaqil fikrlashni shakllantirish yoshlarni hayotga qiziqishini orttirib, komil inson bo‘lishlariga yordam beradi.

Mamlakatimiz oldida turgan ulkan maqsadlarga erishish Vatanimiz kelajagi, birinchi navbatda yoshlarimizga, ularning har tomonlama barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liqdir. Bugungi kunda respublikamiz aholisining yarmidan ko‘prog‘ini yoshlar tashkil qiladi [3].

Yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, yoshlarni, ayniqsa qishloq joylarda qizlarni sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish, yangi sport obyektlarini qurish, ishlab turganlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport uskunalari va anjomlari bilan jihozlash, yuqori malakali trener kadrlar va murabbiylar bilan ta‘minlash muhim ahamiyatga ega.

«Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g‘ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman [1]», — deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutqining avvalida.

«Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o‘z oldimizga ulkan marralar qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta‘lim, maktab va oliy ta‘limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar [2]».

Shuning uchun Respublikamizda yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida mamlakatimizda barkamol avlod kamol topmoqda.

Barcha sohalarda iqtidorli yoshlarimiz o‘z bilim va mahoratlarini ko‘rsatib, ijtimoiy maqomga ega bo‘lib bormoqdalar. Yoshlarning ta‘lim-tarbiya olishlari, jamiyatda o‘z mavqeyiga ega bo‘lishlari, muvaffaqiyatlarga erishishlari yo‘lida Respublikamiz hukumati tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining, avvalo qizlarning ish bilan bandligini ta‘minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish ishtiyqidagi yoshlarga imtiyozli kreditlar, yosh oilalarga uy-joy sotib olish va qurish uchun ipoteka kreditlari, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar xarid qilish uchun iste‘mol kreditlari ajratish ishlarini yanada kengaytirilmoqda. Har tomonlama sog‘lom bolani shakllantirishda ta‘lim tizimining rolini kuchaytirish, maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘ini yanada rivojlantirish, boshlang‘ich ta‘limning yuqori sifatini ta‘minlab, ilg‘or pedagogika va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etgan holda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish tadbirlarini amalga oshirish zarur [2].

Xulosa qilib aytganda, shaxs tarbiyasi bilan faqat tarbiya va o‘quv muassasalari shug‘ullanishi kerak degan fikrga kelish noto‘g‘ridir, asosiy tarbiya avvalo oilada beriladi. Mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oilalarda sog‘lom ma‘naviy muhitni, xususan, o‘zaro hurmat-ehtiram, er-xotin o‘rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin o‘rtasida, qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasida mehr-oqibat ruhini yaratishdan iborat.

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yoki jazo choralarini kuchaytirish bilan jinoyatchilikni butunlay bartaraf etib bo‘lmaydi. Eng muhimi yoshlarning bilim olishi, mehnat qilishi bilan bog‘liq muammolarni ijobiy hal etishi, huquqiy, pedagogik va psixologik tarbiyani kuchaytirish yo‘li bilan ko‘zlagan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

Huqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyilligi yuqori va jinoyat sodir etayotganlarning aksariyatini kuzatadigan bo‘lsak yolg‘iz onalar yoki yolg‘iz otalar tomonidan tarbiya qilinayotgan voyaga yetmaganlar tomonidan kelib chiqmoqda. Ularni tarbiyasida ota, eng asosiysi onaning o‘rni yaqqol sezilib turadi. Ota va onalar tomonidan ijtimoiylashish vaqtida o‘zini o‘rnini topishi uchun kerak bo‘ladigan xulq-atvorining ijobiy omillari yo‘qligi ko‘rinib turadi. Shuning uchun jamiyatda oilalarni mustahkamlash farzandlarni barkamol qilib tarbiyalash davlat va jamiyatdagi qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan, 25 dekabr 2020 yil, 18:00 siyosat.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent; Ma’naviyat, 2008 y.
3. M. Abdullayev, E. Umarov, A. Ochildiyev, A. Yo‘ldoshev, A. Abdullayev “Madaniyatshunoslik asoslari”. «Turon-Iqbol» nashriyoti, Toshkent — 2006 y.
4. M.Imomnazarov “Milliy ma’naviyatimiz asoslar”. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006.
5. O.S.Qodirov. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
6. O.S. Qodirov, Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya // Darslik. - Samarqand, 2023.-360 b.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 10-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-10

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-10

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz